

BOLA TARBIYASIDA OILA TARBIYASINING O’RNI, UNING METODLARI VA VOSITALARI

Buvrayev Akram Rustam o‘g‘li
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Sirtqi bo‘lim o‘qituvchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yosh avlodni tarbiyalashda ota-onaning o‘rni va oilaviy qadriyatlarni bola shaxsini rivojlanishiga nechog‘lik ahamiyatliligi haqida batafsil yoritilgan.

Аннотация: В данной статье подробно освещается роль родителей в воспитании подрастающего поколения и значение семейных ценностей для развития личности ребенка.

Annotation: this article details the role of parents in the upbringing of the younger generation and how important family values are in the development of the personality of the child.

Kalit so‘zlar: Oila, metod, vositalar, maktab jamoasi, mahalla tizimi, shaxs, o‘quvchi meni, ijodkorlik, noan’anaviy metodlar, kreativ fikrlash, tanqidiy usul,etika, kasbiy modul, nutq madaniyati, fikrlash ko‘nikmasi.

Ключевые слова: Семья, метод, средства, школьный коллектив, система соседства, личность, ученик, творчество, нетрадиционные методы, творческое мышление, критический метод, этика, профессиональный модуль, культура речи, навыки мышления.

Keywords: Family, method, tools, school community, neighborhood system, personality, student me, creativity, unconventional methods, creative thinking, critical method, ethics, professional module, speech culture, thinking skills.

XXI asrning dastlabki yilidanoq ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish – O‘zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo‘lidagi bosh g‘oyasiga aylanadi. Asosiy maqsad yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta‘minlashga xizmat qilish, jamiyat a‘zolarini, aholining barcha qatlamlarini O‘zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etish, millati, tili va dinidan qat‘iy nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida mustaqillik g‘oyalariga sadoqat va o‘zaro hurmat tuyg‘usini qaror toptirish bo‘lib qoldi. Albatta, milliy istiqlool mafkurasining

bosh g'oyasi va uning maqsadlarini o'quvchi-yoshlar ongiga singdirishda ta'lim-tarbiya bilan bir qatorda oilaning ahamiyati beqiyosdir. Chunki, oila mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biri hisoblanadi. Oila-jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy manbalarga ega.

Zero, insonning taqdiri ham, kelajakdagi yutuqlari ham, kasb tanlashi ham, axloqli – odobli bo'lishi ham oilaga bog'liqdir. Chunki, farzand-larimizning yaxshi xulqi, axloqi oilada kamol topadi.

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq jamiyat hayotida milliy qadriyatlarni tiklash va ular asosida barkamol avlodni voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida “Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida turish xuquqiga ega” deb ta'kidlanishi bilan birga ota – onalar o'z farzandlarini voyaga yetganlariga qadar boqish va tarbiyalash, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majbur ekanliklari 64, 66-moddalarda ko'rsatilgan.

Oilada ma'naviy muhit yaratish otaga ham, onaga ham birday bog'liq. Sog'lom farzandni dunyoga keltirish, unga chiroyli ism qo'yish, tarbiya berish, ilm o'rgatish, kasb-hunarli qilish, balog'atga yetganda o'ylantirish yoki turmushga berish, hayotda to'g'ri yo'l ko'rsatish ota-onaning vazifasi.

Albatta oila totuvligi, uning davomiyligi oila a'zolarining ruhiyatiga o'zligini qanchalik darajada anglaganligida, o'z mustaqil fikriga, dunyoqarashiga, chinakam insoniy fazilatlarga ega bo'lgandagina to'laligicha ta'minlanadi.

Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida so'z bilan ish borligi odamlarning o'z huquq va erkinligini his etib o'z-o'ziga va jamiyatga bo'lgan munosabatlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Demak, insonning komillik darajasi har bir shaxsda ma'naviyatning to'laqonli shakllanganligi bilan belgilanadi. Shundagina inson o'zining qadr-qimmatini xalqning, millatning qadr-qimmatini bilan nechog'li bog'liq ekanligi, jamiyatda, yurtimizda sodir bo'layotgan voqeaalarga daxldorligini anglaydi. Shu nuqtai nazardan jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish yo'lini tezkorlik bilan siljitishga oila ma'naviyati ruhiy quvvat beradigan yengilmas kuch sanaladi.

Ajdodlarimizning boy va teran ma'naviy merosidan, milliy madaniyatimizning sarchashmalaridan oila ma'naviyatini yuksaltirishda bahramand bo'lish va ularga

tayangan holda ish olib borish g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. O'zining o'zbek millatining vakilidan deb hisoblaydigan har bir inson avlod-ajdodlarimizdan qolgan takrorlanmas boy moddiy va ma'naviy merosdan, jahon sivilizasiyasiga qo'shgan buyuk hissalaridan, ularning chinakam vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik, vatan ozodligi yo'lida ko'rsatgan jasorat mardliklaridan faxrlangan hamda ularning an'analarini davom ettirish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Donolarimiz ta'biri bilan aytganda «Oila jamiyatning duri gavharidir». Ushbu duri gavhar musaffoligini, atrof-muhitga estetik ta'sirchanligi, odamlar muhabbatiga doimiy sazovorligini ta'minlash oilaning har bir a'zosining ma'naviy muqaddas burchidir.

Yuqorida zikr qilingan barcha chora-tadbirlarni amalga oshirib, avvalo ularni ilmiy, diniy, dunyoviy miqyosda mukammal tushunib nazariy va amaliy faoliyatimizda ma'suliyatni his etgan holda bajara olsakkina ozod va obod, erkin va farovon turmush tarzini yarata olamiz.

Oila va jamiyatning o'zaro munosabati yoshlarga samimiy, mustahkam oilaviy munosabatlar haqida oldindan tushuncha berib borish vazifasini o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Chunki, bu narsa turli oilaviy ziddiyatlarni oldini oladi, o'zaro bir-birlarini tushunish va hamkorlik qilish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi.

Oilaning vazifalari ko'p jihatdan qaraganda, xuddi ayrim olingan insonning vazifasiga o'xshaydi, bu vazifa oilaning har bir a'zosida, shu jihatdan, har kimning o'z-sho'ida mavjud bo'lgan eng yaxshi fazilatlarni bir umum ishi uchun sarflashdan iboratdir.

Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivojini ta'minlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, ma'naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan, jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir. Prezidentimiz Islom Karimov unga shunday ta'rif beradi: «Oila-jamiyat negizi. Bizning davlatimizni ham katta bir oila deb tushunish mumkin va lozim... Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlariga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi».

Oilada mehr-muhabbatning ustuvorligi barcha millatlarga xos fazilatdir. Biroq oila, o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra bir xalq, har bir millat uchun o'ziga xos xarakterli xususiyatlarga ham ega. Sharqda oila qurish va uning mustahkamligi, farovonligi va barqarorligini ta'minlash insonning o'z millati, avlod-ajdodlari, jamiyat oldidagi muqaddas burchi hisoblanadi. Ayniqsa, o'zbek millati, avlod-ajdodlari, jamiyat

oldidagi muqaddas burchi hisoblanadi. Ayniqsa, o'zbek xalqi uchun eng muqaddas dargohdir. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, “Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas... O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarning, qo'shnilarning omon-esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa, eng oliy darajadagi ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir”.

Oilaning yana bir o'ziga xos xususiyati, o'zbek oilalari ko'p bo'g'inli bo'lib, aksariyat hollarda qaynona-qaynota, o'g'il va kelin, qaynota, uka va qaynisingil, opa, nevaralar birgalikda yashashadi. Ular bu oilaga xos o'zaro hurmat, mehr-oqibat, hamkorlik rishtalarini mustahkamlashda va shu kabi axloqiy qadriyatlarning keyingi avlodlarga yetkazilishida muhim o'rin tutadi. Shuningdek, kattalarning yoshlrga bergan saboqlari, ro'zg'or tutish, bola tarbiyalash bobidagi tajriba kelin, o'g'il va qizlarga oila mustahkamligini ta'minlashda keyin ham asqotadi.

Demak, oila jamiyatning asosiy negizi bo'lib, uning mustahkamligi va farovonligidan jamiyat bevosita manfaatdor hisoblanadi. Donolarimiz tabiri bilan aytganda, «Oila – jamiyatning duru gavharidir». Ushbu duru gavhar musaffoligini, uning atrof-muhitga estetik ta'sirchanligini, odamlar muhabbatiga doimiy sazovorligini ta'minlash oilaning har bir a'zosidan juda katta ma'suliyat talab etadi. Oilada ma'naviyatni shakllantirish omillari: oila a'zolarining har birida iymon, e'tiqod, mas'uliyat, mehr-shavqat, iroda, o'z-o'zini anglash, qadr-qimmat, ishonch, his-tuyg'u, oqibatlilik, oliyjanoblik, haqgo'ylik, saxiylik, kamtarlik, to'g'rilik, odillik, fozillik, komillik kabi insoniy sifatlarning shakllanishi ularning yuksak ma'naviyatli ekanligini namoyon etadi. Albatta bu sifatlarni kamol toptirishda ibrat, namuna, tushuntirish, rag'batlantirish kabi tarbiya metodlaridan foydalanish o'z samarasini beradi. Buning natijasida oilada ma'naviyatni shakllantiruvchi munosabat turlari bular; er-xotin; qaynona-kelin; yaqin qarindoshlar; mahalla; yor-do'stlar; opa-singillar; qaynota-kuyov; qaynona-kuyov; ota-ona va farzandlar; qo'ni-qo'shni.

Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning xususiyatlaridan yana biri bu aqilni rivojlantirishdir. Chunki, aqilli odamning zehni o'tkir bo'ladi, u har qanday o'git-nasihatni tezda o'z ongiga singdirib oladi. Inson zehning o'tkirligi, har qanday muammoni hal eta olish layoqatini xuddi yuqorida parvoz etayotgan qushning yerdagi

o'ljani ko'rib, unga ega bo'lish ilinjida pastga sho'ng'ishida sodir etadigan tezligidir. Oqil odam zehning tezligi qush parvozig qiyoslanadi.

Mazkur maqola ma'naviy-axloqiy tarbiyani oilada singdirishga qaratilgan bo'lib, unda asosan ishi ma'naviy-axloqiy tarbiyani oilada singdirishning ijtimoiy asoslari tizimiga qaratildi.

Milliy pedagogikaning xalqimiz ongiga chuqur singdirilganligi bir qator falsafiy, ijtimoiy siyosiy, psixologik va pedagogik adabiyotlarda aks etgan. Shu bois ham mazkur adabiyotlardan kurs ishini bajarish jarayonida foydalanildi. Shunga asosan oilada ma'naviy axloqiy tarbiyani oilada bola tarbiyasida qanday singdirish ustida ish olib borilib zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarining yutuqlaridan keng foydalanildi.

Mazkur maqolada oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash metodlarini yoritishga qaratilganligi sababli unda oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning xususiyatlari, ma'naviy tarbiya, axloqiy tarbiya, ularning ko'rinishlari, metod va vositalari. ma'naviyat, ta'riflarga to'xtalishga va ularni o'rganishga to'g'ri keldi. Shu bilan birgalikda oila tarbiyasini takomillashtirish yo'llari ishlab chiqildi. Ushbu ishni bajarish jarayonida ma'naviy – axloqiy tarbiyani bolalar ongiga singdirish muammosi bilan shug'illangan bir qator faylasuf, pedagog va psixolog olimlarning izlanishlari kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aminov M.N. Tarbiya Entiklopediyasi. –T.: 2010.
2. Hasanov J.va boshq. Pedagogika. Darslik.- T.: “Nashr”. 2011.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 07 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni..
4. Mirziyoyev Sh.M. Yerkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo yetamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoev. – Toshkent.: O'zbekiston, 2016.-56 b.
5. R.Mavlonova,O.To'raeva “Pedagogika”, “O'qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, T-2018.

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Volume 02. Issue 05. May 2025

6. B.Abdullayeva, A. Xoliqov, D.Farsaxonova va b. “Umumiy pedagogika”
“Innovatsiya-Ziyo” MCHJ matbaa boʻlimi, T-2021.

7. Shahnoza, I., & Ikromjonovna, J. S. (2023). Boshlangʻich sinf
oʻquvchilarining dunyoqarashini shakllantirishda ertaklarning oʻrni. Qoʻqon
universiteti xabarnomasi, 806-808.

8. Ikromjonovna, J. S. (2023). Boshlangʻich sinflarga taʼlim berish jarayonida
zamonaviy metod va vositalarning ahamiyati. Qoʻqon universiteti xabarnomasi,
581-583.

9. Jumanova, S. B. (2022). Boshlangʻich sinf oʻquvchisining ona tili va
oʻqish savodxonligi darslari orqali milliy qadriyatlarimizni oʻrganishning samarali
omillari. Results of National Scientific Research International Journal, 1(9), 311-321.

10. Quronov M., Qodirov A., Akramova Sh. Yoshlarda mafkuraviy
immunitetni shakllantirish. – Toshkent: «Maʼnaviyat», 2018.

11. Usmonov N., Xolboyeva G. va boshqalar. Boshlangʻich taʼlimda
kompetentlikni rivojlantirish omillari. Toshkent. “Fan va texnologiya”, 2016.

12. Borisova. - M .: ITsPKPS, 2000 .-- 146 p. 3. Gulova, M.N.
Innovatsion pedagogik texnologiyalar: darslik.

**Research Science and
Innovation House**